



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00  
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2024-yil "19"-dekabr

05-32-5503-son

## Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahri va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshliqlariga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2024-yil 21-fevraldagi 37-son Farmonining 12-bandiga ko'ra, **2025-yil 1-yanvardan boshlab** Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "**Ona tili va adabiyot hamda Tarix**" fanlari bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi sertifikatga ega bo'lgan va ushbu fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan **50 foiz** miqdorida har oylik qo'shimcha ustama to'lanishi belgilangan.

**Ma'lumot uchun:** amalda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmonini 9-bandiga binoan qabul qilingan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" (2024-yil 29-mayda Adliya vazirligidan 3515-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) qaroriga muvofiq Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan **20 foiz** miqdorida ustama to'lab kelinmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, 2025-yil 1-yanvardan boshlab Bilim va malakani baholash agentligi tomonidan berilgan Vazirlikning Yagona elektron tizimida (ERP) tasdiqlangan milliy sertifikatga ega "**Ona tili va adabiyot hamda Tarix**" fani pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan **50 foiz** miqdorida har oylik qo'shimcha ustama o'rnatilgan tartibda sertifikat amal qilish davri davomida to'lanishini nazoratga olishingiz so'raladi.

Vazir o'rinbosari

Ijrochi: S.Raximboyev  
Tel.: 55 503-74-00 (9060)



T.Komilov

[info@uzedu.uz](mailto:info@uzedu.uz)



O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirligi



[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)



[uzedu](https://t.me/uzedu)



[uzedu](https://www.facebook.com/uzedu)



[uzedu.uz](https://www.instagram.com/uzedu)